

“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkida amalga oshirilgan loyihalar va istiqboldagi rejalar xususida ma’lumot berildi

// 11.12.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/chirchiq-kimyo-industrial-texnoparkida-amalga-oshirilgan-loy>



Joriy yilning 11-dekabr kuni “O’zkimyosanoat” AJ tomonidan “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki faoliyati, unda ayni paytga qadar amalga oshirilgan loyihalar va kelgusi rejalariga bag’ishlangan matbuot anjumani tashkil etildi. Tadbirda Texnopark rahbariyati, rezidentlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etishdi.

“Chirchiq” kimyo-industrial texnoparki O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent viloyatida “Chirchiq” kimyo-industrial texnoparkini tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-116-sonli qaroriga asosan “O’zkimyosanoat” AJ tomonidan tashkil etilgan. Texnoparkning jami hududi 27,1 gektar bo’lib, 3 ta ishlab chiqarish maydonidan iborat. Texnopark infratuzilmasi tizimiga jami 25 mln AQSH dollar miqdorida sarmoya ajratilgan bo’lib, 75,6 ming.kv.m ishlab chiqarish binolari, 8,2 ming.kv.m ma’muriy binolar foydalanishga topshirilgan.



Hozirgi kunda Texnopark hududida turli xil davlatlardan 25 ta investitsiya loyihalari yo'lga qo'yilgan bo'lib, ularga rezidentlik maqomi berilgan. Rezidentlar tomonidan shu kunga qadar umumiy qiymati 100 mln AQSH dollarlik investitsiyalar o'zlashtirilib, 954 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. 26 mln AQSH dollarlik mahsulotlarni eksport qilishga erishildi hamda 798 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Rezidentlar tomonidan byudjetga jami 75 mlrd so'm soliq tushumlari amalga oshirildi.

Birgina 2025 yilning o'zida Texnoparkda umumiy qiymati 36,5 mln AQSH dollari bo'lgan 8 ta loyiha ishga tushirilishi natijasida 312 nafar yangi ish o'rinlari tashkil etildi.

Texnopark hududida Ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash, kasb-hunarga o'qitish hamda hamkorlik aloqalarini kengaytirish maqsadida joriy yilda Toshkent kimyo-texnologiya instituti bilan hamkorlikda "Intellectual kimyo-texnologiya tizimlari" ilg'or muhandislik maktabi tashkil etildi.

Bu yerda magistr talabalar uchun kimyoviy texnologiya, texnologik jarayonlarni va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish hamda kimyoviy texnologik jarayonlar va apparatlar mutaxassisliklari bo'yicha o'quv jarayonlari olib borilmoqda.



Matbuot anjumani davomida texnoparkda shu kunga qadar amalga oshirilgan loyihalar bilan birga istiqbolga mo'ljallangan rejalarga ham batafsil to'xtalib o'tildi.

Xususan, 2026 yilda umumiy qiymati 40 mln AQSH dollarlik 5 ta investitsiya loyihalar paketi shakllantirilgan bo'lib, ularni amalga oshirish natijasida jami o'zlashtirilgan investitsiyalar miqdorini 140 mln AQSH dollariga yetkazish hamda 1 019 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarish hamda 28 mln AQSH dollarlik mahsulotlarni eksportga yo'naltirish maqsad qilingan.



Shuningdek, bugungi kunning muhim masalalaridan biri bo'lgan energiya samaradorligini oshirish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni joriy etish maqsadida Texnopark hududida quvvati 4 MW bo'lgan quyosh panellarini (*quyosh elektr stansiyasini*) o'rnatish xisobiga yiliga taxminan 5,6-6,4 million kVt/soat elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda Texnopark energiya ehtiyojining bir qismini qoplash va tashqi tarmoqqa bog'liqligini kamaytirish rejalashtirilgan.



Texnoparkda amalga oshirilayotgan loyihalarning natijadorligini hisobga olgan holda uning hududini kengaytirish va yana 9 ta yangi loyihani joylashtirish maqsadida, Toshkent viloyati, Qibray tumani "Baytqo'rg'on" QFY va "Ko'prikboshi" MFY hududlaridan 20 gektar yer maydonini ajratish belgilangan.

Matbuot anjumani yakunida jurnalistlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javoblar berildi.

"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati